

PAPER

NAY CHOLG‘USINING EVOLYUTSION TARAQQIYOTI

Q.M.Fozilov ^{1,*} and Mo‘minova Zilolaxon Hasanboy qizi ²

¹Qo‘qon Davlat Universiteti Musiqa nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

²Qo‘qon Davlat Universiteti musiqa ta‘lim yo‘nalishi 03/25 guruh talabasi

* diloromibaydullayeva554@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa san‘atining muhim puflama cholg‘ularidan biri — nayning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, konstruktiv tuzilishi va ijrochilik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, nayning qadimgi davrdan to zamonaviy bosqichgacha bo‘lgan evolyutsiyasi, uning turli madaniyatlarda tutgan o‘rni hamda an‘anaviy va akademik ijrochilik yo‘nalishlari o‘rganiladi.

Key words: nay, puflama cholg‘ular, maqom, ijrochilik, evolyutsiya, tembr, akustika.

Kirish

Musiqa madaniyati insoniyat ma‘naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, unda puflama cholg‘ular alohida o‘rin tutadi. O‘zbek milliy musiqa san‘atida o‘zining sehrli sadosi bilan qalblarni rom etuvchi nay eng qadimgi va takomillashgan cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Shakli jihatidan fleytaga o‘xshash bo‘lsa-da, o‘zining tembr va ijro imkoniyatlari bilan G‘arb cholg‘ularidan tubdan farq qiladi.

Asosiy qism

”Nay”so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan ”qamish”dega ma‘noni anglatadi. Haqiqatan ham, dastlabki naylar qamishdan yasalgan va oddiygina ichi bo‘shatilgan nay novdasi ko‘rinishida bo‘lgan. Tarixiy manbalar va

arxeologik qazilmalar nayning ibtidoiy shakllari paleolit davriga borib taqalishini ko‘rsatadi. Afsonalarga ko‘ra, nayning sadosi tabiatdagi shamolning qamishlar orasidan o‘tayotganda hosil qilgan ovozga taqlid sifatida vujudga kelgan. Sharq mutasavviflari, xususan, Jaloliddin Rumiy o‘zining ”Masnaviy”asarini ”Naynomasi”bilan boshlar ekan, nayni o‘z aslingdan — qamishzordan uzilganing uchun chekayotgan darding faryodi, deb ta‘riflagan. Nayning tarixi insoniyat tamaddunining ilk davrlariga borib taqaladi. Qamishdan yasalgan ushbu puflama cholg‘u insoniyat yaratgan eng qadimgi asboblardan biridir.

Uning ilk namunalari Misr fravnlari maqbaralaridan topilgan naqshli naylar hamda turli xalqlarning ”tutak”kabi sodda shakllariga

Compiled on: May 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

borib taqaladi bu esa O‘rta Osiyo xalqlarida ham uzoq davrlardan buyon mavjudligini va milliy musiqaning ajralmas qismi bo‘lib kelganligi ko‘rsatilgan.

Nay cholg‘usining tarixiy va funksional xususiyatlarini ochiqlash maqsadida ko‘plab etnograflar va cholg‘ushunoslar tomonidan majmuaviy yondashuvlar asosida ilmiy izlanishlar olib borilgan va nay cholg‘usining qadimgi davrdan to bugungi kungacha bo‘lgan evolyutsiyasi o‘rganilgan.

Afrosiyob (mil.avv. III-I asrlar) va Panjikent devoriy suratlaridagi musiqiy tasvirlar, shuningdek, suyakdan yasalgan arxeologik topilmalar qiyosiy tahlil qilingan.

O‘rta asr musiqashunos allomalari — Abu Nasr al-Farobiyning ”Kitob al-musiqa al-kabir Ibn Sinoning ”Javomi’ ilm al-musiqa” va Safiuddin Urmaviyning ”Kitob al-advor” asarlaridagi nayga oid nazariy ma’lumotlar tizimlashtirilgan. Asarda nayning tuzilishi, pardalari va tovush qatorlari haqida mukammal nazariy ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Bu davrda nayning turli ko‘rinishlari — sunay (surnay), qamish nay, mis nay kabi turlari shakllangan. Samarqand va Hirotda san’at taraqqiy etgan davrda nay ijrochiligi o‘zining cho‘qqisiga chiqdi. Xofiz Meragiy kabi olimlar nayning texnik imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha izlanishlar olib borishgan.

Cholg‘ushunoslik nuqtayi nazaridan nayning konstruktiv o‘zgarishlari tadqiq etilgan. Nay tanasining materiali (qamish, yog‘och, bambuk) va uning tovush tembriga ta’siri fizik-akustik jihatdan ko‘rib chiqilgan. Cholg‘uning ichki diametri, teshiklar joylashuvi va havo oqimining tebranish dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

Nayning turli xalqlar va davrlardagi ko‘rinishlari (lab nay, g‘ajir nay, sibirg‘a, ko‘ndalang nay) klassifikatsiya qilindi. Bu metod orqali o‘zbek an’anaviy nayining boshqa mintaqaviy turlaridan (masalan, arab ”Ney”i yoki g‘arb flautasi) farqli va o‘xshash jihatlari aniqlangan va ijrochilik amaliyoti ham inobatga olindi.

O‘zbekistonda Professional nay ijrochilarining (Abduhoshim Ismoilov, t.f.n. S.Xalilov va boshqalar) ijro uslublari va nolish texnikalari kuzatilgan. Tasavvuf adabiyotidagi (J.Rumi, A.Navoiy) nayga

oid metaforik obrazlar semantik tahlil qilingan.

Nayning tembri inson ovozigiga (soprano) yaqinligi sababli, u o‘zbek orkestrlari tarkibida yetakchi cholg‘u (solo instrument) vazifasini muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Nayning O‘rta Osiyo va unga tutash hududlardagi taraqqiyoti uning bir necha konstruktiv turlarini keltirib chiqargan.

Katta nay bu turdagi naylar uzunroq bo‘lib, yo‘g‘on va past sado beradi. Ular asosan lirik-falsafiy kuylarni, masalan, ”Cho‘li Iroq” kabi asarlarni ijro etishda qo‘llaniladi. Ularning tembri insonning ”bas” yoki ”bariton” ovozigiga yaqin keladi.

O‘rta nay o‘zbek ijrochiligida eng keng tarqalgan tur bo‘lib, barcha janrlarda, xususan, maqom yo‘llarida yetakchi hisoblanadi. Uning akustik diapazoni eng qulay va jarangdor qismni tashkil etadi.

Kichik nay bu naylar yuqori registrlarda jaranglaydi. Ularning ovozi juda o‘tkir va baland bo‘lib, asosan ochiq joylarda, katta bayramlarda va shodiyonalarda quvnoq kuylarni chalishda ishlatilgan.

O‘rta Osiyo xalqlarida nay uzoq davrlardan buyon mavjud bo‘lib, u nafaqat musiqa asbobi, balki madaniy ramz sifatida ham qadrlangan. Ushbu cholg‘u turli mintaqalarda turlicha nomlanadi:

Buryatiya va Mongoliyada: ”Limba”.

Xitoyda: ”Li”.

Vetnamda: ”Sao”.

Afg‘onistonda: ”Tola”.

O‘zbekiston va Tojikistonda: ”Nay” deb yuritiladi. Ovoz hajmi kengligidan xalq kuylarida, maqomlarda ishlatiladi. Tovush baland bo‘lganligidan ansamblida ko‘proq boshlovchilik vazifasini bajaradi. Kuy boshlanadigan pardaga bog‘liq holda nayga moslab boshqa cholg‘u asboblari sozlangan. Shuning uchun naydagi barmoqchalig‘ich teshikchalar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida sozlash turlari qo‘llangan Bular: ”Besh qo‘l”: Barmoq teshiklarining berkitilish holatiga ko‘ra eng keng tarqalgan soz. ”To‘rt qo‘l”: Ma’lum bir kuylar diapazoniga moslashtirilgan holat. ”Uch qo‘l”: Maxsus pardalarda ijro etish uchun qo‘llaniladi.

Nay yasash san’ati o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, u turli materiallardan tayyorlanishi mumkin.

Asosan quyidagi turlari mavjud:

Yog‘och nay: Maxsus qattiq daraxt turlaridan yasaladi.

G‘arov nay: Maxsus qamish (g‘arov) turidan tayyorlanadi va eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Metalldan tayyorlangan, ovozi biroq o‘tkirroq turlari va metalldan yasalgan turlari mavjud.

Eng ko‘p tarqalgani yog‘och nay bilan g‘arov nayidir. Nayda barmoqlar bilan berkitiladigan oltita va lab bilan puflash uchun bitta teshik bor. Nayning tovushqatori diatonik bo‘lib ikki yarim oktava (1-oktava lya notasidan 4-oktava re notasigacha) tovush ko‘lamiga ega. 2-oktava lya notasidan yuqori pardalar nafas bosimini kuchaytirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Sozandalar ijro davomida va ayniqsa yuqori tovushlarni hosil qilganda murakkab (asosiy pardalarda o‘rta barmoqlarni ochgan holda “vilochniy” applikatorani qo‘llaydilar. Nay teshiklarini yarim ochgan holda esa xromatik tovushqator hosil qilish mumkin. Shuningdek, nayning puflanadigan teshigiga ijrochi labini pastroq yoki yuqori qo‘yishi natijasida tovushni yarim pardaga farq qildirish mumkin. Yuqoridagilardan tashqari hech qanday vazifani bajarmaydigan qog‘oz yopishtirib qo‘yilgan bitta teshik va nayning oxirida to‘rtta teshik bor. Bulardan eng pastda joylashgan ikkita teshik o‘zining o‘rniga qarab asosiy tonning balandligini aniqlaydi.

Zamonaviy o‘zbek nayi asosan sersuv va qattiq yog‘ochlardan (o‘rik, tut, yong‘oq) yoki qamishdan tayyorlanadi. Uning uzunligi odatda 450 mm dan 550 mm gacha bo‘ladi. Nayning ichi silindrsimon shaklda yo‘niladi. Shuningdek, pastki qismida sozni sozlash (tyuning) uchun qo‘shimcha teshiklar ham bo‘lishi mumkin. Nayning o‘ziga xosligi shundaki, unda tovush chiqarish musiqachidan katta nafas nazorati va lab apparatining aniq ishlashini talab qiladi. Nay “labli puflama cholg‘ular” guruhiga kiradi, ya‘ni havo oqimi nayning lab teshigi qirrasiga urilib, tebranish hosil qiladi. Hozirgi zamon naylari qisqadir, chunki ularning sozi naylarni tayyorlash paytida umumiy uzunligi bo‘yicha belgilanadi.

Bugungi kunda nay ijrochiligi o‘zining ko‘p asrlik tarixiy ildizlarini yo‘qotmagan holda, zamonaviy san‘at talablariga mos ravishda ikki asosiy yo‘nalishda taraqqiy etmoqda. Bu bo‘linish

instrumentning ham milliy o‘zlikni saqlash, ham jahon musiqa maydoniga integratsiya bo‘lish qobiliyatini ko‘rsatadi,

An’anaviy yo‘nalish ya‘ni Ustoz-shogird maktabi.

Bu yo‘nalish nay san‘atining “oltin fondi” hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi asrlar davomida shakllangan ijro uslublarini o‘zgartirmasdan, keyingi avlodga yetkazishdir.

Nay - “Shashmaqom” va boshqa turkum asarlarda yetakchi cholg‘u. Bu yo‘nalishda xonandaga jo‘r bo‘lish va murakkab cholg‘u yo‘llarini (masalan, “Naylar”) barcha nolish va qochirimlar bilan ijro etish talab etiladi. Maqom cholg‘u bo‘limlarida (Mushkilot) nay ko‘pincha asosiy mavzuni bayon etadi. Uning uzoq cho‘ziladigan sadosi maqomning metroritmik asosini (usulni) badiiy bezaklar bilan to‘ldiradi.

“Katta ashula” janrida nay yagona jo‘rnavor cholg‘u sifatida chiqishi mumkin. Bu yerda nay xonandaning nafasini takrorlashi, u to‘xtagan joyda kuyni davom ettirishi va ashulachining ovoz diapazoniga moslashishi kerak. Bunday ijro uslubi dunyo musiqa madaniyatida kam uchraydigan “savol-javob” shaklidagi improvizatsiyani yuzaga keltiradi.

Og‘zaki an’anaviy uslubda bilimlar notaga tayanmagan holda, ustozning chalingan kuylarini shogird tomonidan “quloqdan” o‘zlashtirish orqali o‘tiladi.

Mahalliy uslublar yo‘nalishida Toshkent-Farg‘ona, Buxoro-Samarqand va Xorazm ijrochilik maktablarining o‘ziga xos talqinlarni saqlab qolgan.

Cholg‘u sozi ko‘pincha oddiy bambuk (qamish) naylardan foydalaniladi, bu esa tovushning mayin va inson ovozigacha yaqin chiqishini ta‘minlaydi.

Akademik yo‘nalish nayning texnik imkoniyatlarini kengaytirish va uni jahon musiqiy standartlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Ijrochilar jahon klassik musiqasi qoidalariga asoslangan holda, murakkab partituralarni o‘qish va ijro etish mahoratiga ega bo‘ladilar.

Nayda nafaqat o‘zbek kuylari, balki Bax, Motsart, Vivaldi kabi G‘arb bastakorlarining asarlari hamda zamonaviy o‘zbek kompozitorlarining (masalan, M. Tojiyev, F. Alimov) maxsus nay uchun yozilgan sonata va konsertlari ijro etish mumkin.

Akademik yo‘nalishda naydan fleyta kabi foydalaniladi. Bu ijrochidan yuqori darajadagi virtuoziqlikni, ya‘ni tezkor templar va keng diapazonlarda erkin harakat qilishni talab qiladi.

Nayning simfonik orkestr yoki kamer ansambllari tarkibiga kirishi milliy nay ovozi G‘arbiy Yevropa cholg‘ulari bilan garmonik uyg‘unlikka erishiladi.

Ushbu ikki yo‘nalish bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi. An‘anaviy yo‘nalish nayning ”ruhini”saqlab qolsa, akademik yo‘nalish unga dunyo sahnalarida ”yangi til”baxsh etadi. Bugungi zamonaviy naychi ham mumtoz maqomni mahorat bilan chala olishi, ham zamonaviy murakkab asarlarni nota ustida ijro etish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, nay — shunchaki musiqa asbobi emas, balki xalqimizning ko‘p asrlik tarixi va dardini o‘zida mujassam etgan jonli merosdir. Uning oddiy qamishdan boshlangan yo‘li bugungi kunda professional orkestrlarning markaziy nuqtasiga qadar ko‘tarildi. Nayning texnik imkoniyatlari, uning nafas va barmoq harakatlari uyg‘unligidagi murakkab ijro uslublari kelajak avlod sozandalari uchun katta maktab vazifasini o‘taydi.

References

1. Rajabov, I. ”Maqomlar masalasiga doir”. Toshkent, 1963.
2. Azizov, H. ”Nay ijrochilik mahorati”. (O‘quv qo‘llanma), Toshkent, 2015.
3. Fozilov.Q “Musiq tarixi” darslik Qo‘qon2026
4. Fozilov, Qaxramon Madaminovich. ”O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARI TARIXIGA BIR NAZAR.”Oriental Art and Culture 4.2 (2023): 152-156.
5. Qahramon, Fazilov. ”Status Performance in Music Theory.”Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 804-807.